

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

FILOLOGIYA FAKUL'TETI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5141100 - o`zbek tili va adabiyoti bakalavr ta`lim

yo`nalishi bitiruvchisi

DJUMABAEVA OYDINOY MAMATSABIROVNNANING

**“8 - SINF ADABIYOT DARSLARIDA PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH”**

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

NUKUS - 2011

Bitiruv malakaviy ishi “O`zbek adabiyoti” kafedrası yig`ilishining 2011 yil «___» _____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani: f.f.n., dots. K.Tashanov

Kafedra mudiri: f.f.n. S.Matyakupov

Ilmiy rahbar: assistent.G.Pashieva

Djumabaeva Oydinoyning “8-sinf adabiyot darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat Attestatsiya Komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo`yildi.

«___» _____ 2011-yil

DAK kotibasi:

S.Bekchanova

MUNDARIJA

Kirish.....	4 - 7
Asoslama.....	8 - 9
I-BOB. Adabiyot darslarida pedagogik texnologiyadan foydalanishning ilmiy nazariy asoslari	
1.1. Pedagogik texnologiyaning ilmiy –metodik asoslari.....	10 - 19
1.2.O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'rgatish.....	20 – 27
II-BOB. Dars samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning qo'llanilishi	
2.1. O'qitishning samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning ilmiy nazariy asoslari	28 - 37
2.2. Gafur Gulom hayoti va ijodini o'rgatishning samarali usullari.....	38 - 43
Xulosa.....	44 - 46
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	47 - 48

KIRISH

Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganlaridek, biz "Mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'lik ekanini hamisha yodda tutushimiz kerak". Shu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga hafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi ijodiy faoliyat tarbiyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yiladi.

Ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, ta'lim tizimining ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni dars jarayoniga tadbiq etishdan iboratdir. Darvoqe, ilmiy texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda madaniyat soxasiga, ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasiga ham yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu boisdan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" e'tirof etildi, uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

"Ta'lim to'g'risida" gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'lim tizimimizda jiddiy yangilanishlar amalga oshmoqda. Shunday ekan bu darslarni samarali, ilg'or texnologiyalar asosida tashkil qilish o'qituvchidan o'ta ma'suliyatni talab qiladi. Shularni hisobga olgan holda ushbu malakaviy ishimizda adabiyot darslarida pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlarini ochib berishga harakat qildik. Bugungi mustaqillik davrida respublikamiz iqtisodiy - siyosiy, ijtimoiy - madaniy sohalarda yuqori pog'onalarga ko'tarilib, jahon bozori iqtisodiyatiga, maorif jabhasida jahon standarti darajasiga dadil qadamlar bilan bormoqdaki, bu esa o'z navbatida o'qitishning yangi shakllari va metodlarini kashf qilish, tajriba orttirish

vazifasini har bir o'qituvchi oldiga ko'ndalang qo'ymoqda. O'qitishning noan'anaviy usullari, zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish shular jumlasidandir. Shu ma'noda o'qitish usullari haqida fikr bildirish mavzu jihatdan tahlil etish, o'rganish tanlagan mavzumizning dolzarbligini belgilaydi. To'g'ri, o'qitish usullari haqida bir qancha izlanishlar olib borilgan. Shunga qaramasdan hali uning tadqiq etilmagan qirralari ko'p.

Ma'lumki keyingi paytlarda ilg'or tajribali o'qituvchilar tamonidan darsning seminar - dars, bahs - dars, suhbat - dars, sinov - dars, konferensiya - dars, sayohat-dars kabi turlari o'tkazilmoqda. Bunday dars turlari o'quvchining dars paytidagi loqaydligiga barham berib, unda faollikni uyg'otadi, bolani o'ylashga, muhokamali fikr yuritishga, so'zlashga va izlanishga hamda mehnat qilishga o'rgatadi.

Buning uchun hamma vaqt o'qituvchi, o'z o'quvchilariga nisbatan ko'proq shug'ullanib, bilim va mahoratini tinmay oshirib borishi zarur. Shundagina u o'z nomiga munosib faoliyat kishisi bo'ladi. Mehnatning samarasi sifatida har bir darsi mazmunli, maroqli originalligi bilan farqli ekanligini, uning mashg'ulotlariga o'quvchilar tabora qiziqib borayotganliklarini, shogirdlarining dars jarayonida o'quv materiallarini, o'zaro ishtiyoq bilan o'rganishga kirishib aktivlik va uyushqoqlik ko'rsatayotganliklarini qalbdan his etadi. Bunday natijaga, shubhasiz dars jarayonida o'qitish usullaridan har tomonlama foydalanish orqali erishish mumkin.

Men bu ishimda yuqorida ta'kidlab o'tganlardan tashqari adabiyot darslarida pedagogik texnologiyadan foydalanish masalasi bo'yicha fikr yuritmoqchiman. Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasi, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchilarda xurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Ana shularni nazarda tutgan holda bizning malakaviy bitiruv ishimiz Ikkita bobdan iborat bo'ldi. Ishimizning birinchi bobi "Adabiyot darslarida

pedagogik texnologiyadan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari deb nomlangan bo'lib, unda o'quvchilarning savodxonligini oshirish, adabiyot mashg'ulotlarini yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, adabiyot darslarining samaradorligini hozirgi zamon talablari darajasiga olib chiqish va dars jarayoniga tatbiq etishning usul va vositalari haqida tavsiyalar berishga harakat qildik.

Ishimizning ikkinchi bobi "Dars samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning qo'llanilishi" deb nomlangan bu bobda biz pedagogik texnologiyalar, interfaollik vositalari, kichik, interfaol texnologiyalardan namunalar, aqliy hujum, venn diagrammasi, tarmoqlar (klaster) metodi, zinama-zina metodi, sinkveyn usuli, davra suhbatlar, davralar metodi, mojora metodi, munozara metodi, munozaralar o'tkazish texnologiyasi, yangi pedagogik texnologiya yo'nalishidagi dars ishlanmalari namuna sifatida berilgan.

Bugungi kunda xox an'anaviy metodlardan biri qo'llaniladimi, xox noan'anaviy usullar tadbiq etiladimi, o'quvchini ta'lim sub'ektiga aylantirish masalasini diqqat markazidan qochirmaslik zarur. Zero, o'qituvchi bilan o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ma'lum ma'noda teng mavqeyi, hamkorligi ikki o'rtadagi samimiy munosabat, o'zaro hurmat, ishonchli muloqot natijasi, o'qituvchining boshqaruv mahorati bilan belgilanadi. Bu mahorat tushuntirish qobiliyati, o'quvchilarni kamolot sari yo'naltira bilish layoqati, maslahat berish va nazorat qilishning baqamti joriy etilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

O'qituvchi samaradorlikka erishish uchun ta'lim metodlarining mohiyati, ularning tasnifi va foydalanishga doir talablarni bilibgina qolmay, "ularni joriy etishning nutqiy xususiyatlarini ham egallab olishi" lozim. Bunda gap o'qituvchining so'ziga borib taqaladi. O'qituvchining so'zi metod sifatida ham, darsni olib borish usuli sifatida ham turli xil o'quv va tarbiyaviy vazifalarni bajarish: o'rganilayotgan hodisalarning mohiyatini ochib berish; bilimlarni amalda qo'llashga o'rgatish; qiziqarli va muhim faktlar haqida hikoya qilish va boshqa shu kabilar uchun qo'llanadi.

Demak, adabiy ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyani qo'llash

ma'lum qolip asosida fikrlashni emas, balki umumiy yechimga xilma-xil ijodiy izlanishlar orqali kelishini taq'ozo etadi. Asosiy maqsadga erishish faqat tushuntirish va aniqlash jarayoni bilan chegaralanmaydi. Adabiyot darslari jarayonida o'quvchilarning ma'lum bir vaqt ichida o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni o'zlashtirishi o'sha bilimlarni takrorlay olishi va amaliyotda qo'llashi bilan belgilanadi. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonida qabul qilingan standart matnlarga ijodiy yondashish lozim bo'ladi.

A S O S L A M A

Mavzuning manbai. Umum o'rta ta'lim maktablari ta'lim tizimida adabiyot darslarida qo'llanadigan pedagogik texnologiya tadqiqot manbai hisolanadi

Mavzuning muammosi. O'rta ta'lim tizimida adabiyotdan pedagogik texnologiya hamda ularni tashkil etishning eng ma'qul va samarali usullarini aniqlash, amaliyotga tatbiq qilishdir.

Mavzuning ilmiy-metodik ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Adabiyot darslarida pedagogik texnologiya orqali o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash, ijodiy ishlarga rag'bat uyg'otishi, ma'naviy jihatdan boyitishi amaliy tajribalar xulosasi sifatida isbotlanadi.
2. Pedagogik texnologiyalar juda xilma-xil bo'lib, biz ulardan ba'zilari haqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida uslubiy ko'rsatma beramiz. Ushbu malakaviy bitiruv ishida keltirilgan zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.
3. O'rta ta'lim tizimida adabiyotdan pedagogik texnologiyaga doir o'quvchilarni darslik va topshiriqlar, adabiy ta'lim jarayonida adiblarning asarlarida ularning shaxsi u yoki bu darajada aks etganligini anglatish, asarlardagi qahramonlarning kechinmalarini va xatti-harakatiga qarab ularning shaxsini baholashiga turli metodlari yordamida o'rgatish, adabiy-estetik tahlillashda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish va ularni amalda qo'llash yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.
4. Adabiyotdan pedagogik texnologiya usullarini ta'lim jarayoniga tatbiq qilish dasturda belgilangan o'quv-tarbiyaviy vazifani bajarishda salmoqli o'rin tutishi, birinchi navbatda o'quvchilarning o'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs

sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogik va o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida ilgari surilgan nazariy firklar, metodik tavsiyalar, amaliy xulosalar umumta'lim tizimining barcha bo'g'inlari uchun adabiyotdan dastur, darsliklar, majmua va o'quv qo'llanmalari yaratishda, shuningdek, oliy o'quv hamda o'rta maxsus bilim yurtlarida maxsus kurs va seminar mashg'ulotlari o'tkazishda baholi qudrat yordam berishi mumkinligi bilan istiqbolga erishgan Vatanimizning milliy-ma'rifiy mafkurasini amalda joriy qilishga xizmat qiladi.

Ushbu malakaviy bitiruv ishida pedagogik texnologiya usullaridan foydalanuvchilar o'quv jarayonini tashkil etish uchun havola etilgan texnologiya treninglarni xuddi shu tartibda o'tkazishlari shart emas, xar qaysi o'qituvchi bu terininglarning umumiy shaklini olgan holda o'zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan treninglarning to'liq yoki ularning ba'zi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishlari mumkin .

I B O B

ADABIYOT DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISHNING ILMIY - NAZARIY ASOSLARI

I.I. Pedagogik texnologiyaning ilmiy –metodik asoslari

Jamiyatimizning har bir fuqarosi XXI asr bo'sag'asida turar ekan, ortda qolgan yillar qadrini baholashga va kelajak hayotining turli jabxalarini belgilab olishga urinishi tabiiydir. Jumladan, xalq ta'limi soxasida faoliyat ko'rsatayotganlar ham bundan mustasno emas.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'lim tushunchasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib quyidagicha ta'riflaydi: “Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi“. Ta'kidlangan maqsadni amalga oshirish uchun ta'limning yangi modeli yaratildi va uning kelajakdagi “portlash effekti“ Yurtboshimiz tomonidan ilmiy asoslab berildi. Modelni amaliyotga tadbqiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbqiq etish zarurati tug'ildi? An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish qurishi tufayli “axborotli o'qitish“ sifatida tavsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baholanmoqda. Bu bir tomondan.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim fazosida ro'y berayotgan tub burilishlar har bir ta'lim muassasasida didaktika soxasini jonlantirishni talab etadi, yangilikni joriy etish

yo`li esa har doim murakkab va o`zoq. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, pedagog texnologiya yaqin yillar ichida didaktik yangilikka kirishishning asosiy manbai bo`lib qoladi. O`zbekistonda ta`lim-tarbiya sohasini islox qilishning asosiy omillaridan biri “shaxs manfaati va ta`lim ustuvorligi”dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta`limning yangi modeli yaratildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan hayotimiz jabxalarida ro`y beradigan “portlash effekti” natijalari ro`y-rost ko`rsatib berildi, ya`ni:

- ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta`sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o`zgaradi.;

- insonning hayotidan o`z o`rnini topish jarayoni tezlashadi;

- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi;

- jamiyatimizning potensial kuchlarini ro`yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;

- fuqarolik jamiyati qurishni ta`minlaydi, model vositasida dunyodan munosib o`rin olishga, o`zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi .

“Portlash effekti” sari shijoat bilan qadam tashlash, yo`llarda uchraydigan qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich va izchil xal etish masalalari nafaqat pedagog nazariyachi va amaliyotchilarni junbushga keltiradi, balki jamiyatimizni to`liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi. Demak, jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiyashunoslik asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik “qurol” va vositalar bilan ta`minlash davr taqozosidir.

Ma`lumotlilik asosida yotuvchi bosh g`oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan, avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, sabrbardoshli, qanoatli, o`zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini shakllantirishni ko`zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning yechimi qaysi darajada ta`limni texnologiyalashtirish bilan bog`liq ?

Texnologiya so'zi fanga 1872 yilda kirib keldi. U yunoncha "texos"- hunar, mahorat va "logos" esa ta'limot yoki fan degan ma'noni beradi. qisqacha "mahorat haqidagi fan" ma'nosini anglatadi. Bugungi kunda ayrim kishilar pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda oq'itish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb o'ylashadi. Bu to'g'ri emas. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi - trener va o'quvchilarning begilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq.

XX asr texnika va ilm-fanning eng gurkirab rivojlangan davri bo'lsa-da, ta'lim sohasida bir xil andoza edi. Bugungi kunda o'qitish jarayonida EHM, kompyuterlar, mikroelektron mashinalardan keng ko'lamda foydalanilganlik natijasida yangi pedagogik texnologiya vujudga kelgan.

Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashlariga erishish hamda o'quvchilar bilimini baholashda reyting kabi me'yorlarni qo'llashdan iboratdir.

"Pedagogik texnologiya" iborasi birinchi marta 1970 yilda yapon olimi T.Sakamoto tomonidan kiritilgan. Olimning fikricha-pedagogik texnologiya (o'qitish texnologiyasi) o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar soxasidir. Professor N.F.Talizina pedagogik texnologiyani belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat,- deb hisoblaydi. Professor N.Saydahmedovning aytishicha "Pedagogik texnologiya bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayonidir"¹. Professor M.Ochilovning yozishicha pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan metodlar va usullar majmuidir. Bu tushunchaga

¹Yo'ldashev J.R, Usmanov S.A.Pedagogik texnologiya asoslari.-T:O'qituvchi, 2004 8-bet.

YuNESKO tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: "Pedagogik texnologiya - texnik resurslar, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi"¹.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuidir. Pedagogik texnologiya eskimi, yangimi qadimdan mavjud. Biroq jamiyat taraqqiy etgan sari maorif oldiga o'zining yangidan-yangi ijtimoiy buyurtmalarini qo'yib borganligi tufayli, ta'lim-tarbiya jarayoni ham zamonaviy ilg'or metodlar, usullar bilan boyib, yangilanib boradi.

Pedagogik texnologiyaning yo'nalishlari ko'p. Hozirgi an'anaviy ta'lim, bu 17-asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko'p qo'llanilayotgan sinf-dars tizimidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Ular pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar; o'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar; o'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqish asosidagi pedagogik texnologiyalar; o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar; tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar; rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari va boshqalar.

Yangi o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilyapti: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy soxalarda tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya soxasining islox qilinishi pedagogika fanini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyati tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiyashunoslik tajribalarini o'rganish va tadqiq qilish ishlari keng yo'lga qo'yildi.

¹ Yo'ldashev J.R., Usmanov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - T: O'qituvchi, 2004 7-bet.

Bugun mamlakatimiz istiqloli sharofati tufayli barcha fan soxalarini rivojlangan davlatlarda to`plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o`rganish va hayotimizga tadbiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta`kidlanganidek, yaqin kelajakda “kadrlar tayyorlash soxasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo`nalishlari ro`yobga chiqariladi, xalqaro ta`lim tizimlari rivojlantiriladi”.

30-yillarda “pedagogik texnika” tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo`ldi va u o`quv mashg`ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo`naltirilgan usul va vositalar yig`indisi sifatida qaraldi. Shuningdek, bu davrda pedagogik texnologiya deb o`quv va laboratoriya jixozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko`rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50-yillarda o`quv jarayoniga o`qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi PTga tenglashtirildi.

60-yillarning o`rtalarida bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarda keng muhokamaga tortildi. 1961-yildan boshlab AQShda “Pedagogik texnologiya” (Edusational Tyehnology), 1964 yildan Angliyada “Pedagogik texnologiya va dasturli ta`lim” (Tychnoogy and pragrammed Learning), Yaponiyada esa 1965-yildan “Pedagogik texnologiya” (Edusational Tyehnology) jurnallari chop etila boshlandi. 1971-yilda xuddi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi.

Pedagogik texnologiya muammosining o`ta dolzarbligi hisobga olinib, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish maqsadida maxsus korxonalar tuzildi. Misol uchun, 1967-yilda Angliyada pedagogik texnologiya Milliy Kengashi (National souncil for Edusational Tyehnology) tashkil etildi va 1970-yildan boshlab “Pedagogik texnologiya jurnali” (Jornal of Edusational Tyehnology) chiqa boshladi. AQShning qator universitetlari va ilmiy markazlarida ham pedagogik texnologiya muammolariga jiddiy e`tibor berildi. 1971-yilda maxsus “Kommunikatsiya va texnologiya Assosiatsiya”si (Assosiatsion for Edusational Communitations and

Tyehnology) faoliyat ko`rsata boshladi. Hozirgi kunda bu tashkilotning barcha shtatlarda va Kanadada 50 dan ziyod filiallari ishlab turibdi.

Yaponiyada pedagogik texnologiya muammolari bilan to`rtta ilmiy jamiyat shug`ullanmoqda, faol harakatdagi pedagogik texnologiya Markaziy Kengashining 22 ta davlat universitetlarida markazlari mavjud. Har uch oyda yapon tilida chiqadigan "Pedagogik texnologiya soxasidagi tadqiqotlar"(Edusational Tyehnology Reslarch) jurnallarida yirik olimlarning ilmiy ishlari o`z o`rnini topmoqda. Yaqinda Umumyapon pedagogik texnologiya Markaziy Kengashi (The Japanese Council of Tyehnologu Centers) tuzilib, bu soxada xalqaro aloqalar o`rnatish ishlari bilan mashxur.

Didaktikaning bu yo`nalishiga e`tibor nihoyatda oshib borishini 70-yillarda o`tkazilgan qator xalqaro konferensilar tasdiqlaydi. Shunday xalqaro konferensiyalar 1966-yildan boshlab har yili bahorda Angliyada o`tkazilib kelinadi va anjuman materiallari "Pedagogik texnologiya jihatlarini" (Àspects of Edusational Tyehnologu) nomida nashr qilinadi.

Shu kabi ma`lumotlarni keltirishni g`arb davlatlari misolida yana ham davom ettirish mumkin. Yuqoridagilarning o`zi yoq pedagogik texnologiya pedagogika nazariyasi va amaliyoti soxasidagi alohida hodisa sifatida diqqat markazda turganligini, 60-yillardan boshlab chet ellarda yangi yo`nalish sifatida shakllanganligini ta`kidlab turibdi. Tahlillarning ko`rsatishicha, bu davrda pedagogik texnologiya ikki yo`nalishda muhokama qilindi va rivojlantirildi: birinchisi - o`quv jarayoniga texnik vositalarini qo`llash bilan bog`liq bo`lsa (shu jumladan dasturli ta`limning texnik vositalari), ikkinchisi - o`qitish texnologiyasi masalalarini, ya`ni o`quv materiallarni tahlil qilishdan tortib ta`lim jarayonini turlicha nashrli va texnik vositalardan jamuljam foydalangan holda tizimli tashkil etishga qadar bo`lgan keng doiradagi muammolarni qamrab oladi. Shu yerda birinchi konferensiya materiallari (1966 yil) to`plamning kirish maqolasida yozilgan juda muhim dalilni keltirish o`rinlidir: "ikki tushuncha - "pedagogika" va "texnologiya"larni qo`shish mantiqi tortishuvlarga sabab bo`layapti. Chunki "texnologiya"so`zi sinf xonasiga texnikani kiritish va "degumanizatsiya"

(insonparvarlikdan voz kechish) g'oyasi bilan tavsiflanishi pedagogik kasb vakillarini cho'chitishi mumkin“. Albatta, bu fikr ma'lum darajada to'g'ri bo'lishi mumkin. Biroq texnokratik fikrlash (texnikaning inson va uning qadriyatlari ustidan ustunligi) fanda qoralanadi yoki inson xech qachon “temir mashina“ga tobe bo'lmaydi, balki uni o'z aql- zakovati bilan yaratadi va boshqaradi. Bu muammoning psihologik jihatlari bo'lib kam o'rganilgan soxa.

70-yillarning boshiga kelib o'quv jixozlarining turli xillarini va o'qitishning predmetli vositalarini loyihalash va ishlab chiqarishni yo'lga quyish zaruriy shartlardan biriga aylandi, ularsiz ilg'or metodika va o'qitish shakllari samarasiz bo'lishi, ta'lim sifatiga erishib bo'lmasligi anglab etildi. Shu boisdan davlatlarda ham bu soxada ma'lum xajmdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1965-yilda sobiq Rossiya Pedagogika Fanlari Akademiyasida “O'quv jixozlari va o'qitishning texnik vositalari“ ilmiy tekshirish instituti tashkil etildi va hozir ham Rossiya ta'lim akademiyasi instituti sifatida faoliyat ko'rsatayapti. 1973- yilda Vengriyada “O'qish texnologiyasi Davlat Markazi“ bevosita YUNESKO tashabbusi va dasturi asosida tashkil etildi va uning asosiy vazifasi o'qitish texnologiyasining yangi qirralarini kashf etish, mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish kabi masalalardan iborat bo'ldi.

Shunday qilib, 1972-yilning kech kuzida Buyuk Britaniya va Fransiya kitob dukonlarida “Yashash uchun o'qish. Dunyo tarbiyasi bugun va ertaga“ (Learning to be Tche world of edication today and tomarrow) kitobi paydo bo'ldi. Bu voqeaga roppa-rosa 27 yil vaqt o'tgan bo'lsa-da, ma'ruzaning asosiy g'oyalarini eslash foydadan holi bo'lmaydi. Boz ustiga bu kitob boshqalari kabi mamlakatimiz keng auditoriyasiga kirib kelmadi, kutubxonalarimiz boyligiga aylanmagan.

Bu davrda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar turli mamlakatlarda turlicha kechdi: ba'zi birlari amaliyotdagi mavjud ta'limni takomillashtirishni avzal ko'rsalar, boshqalari o'z oldilariga hozirgi ta'lim tizimini yangisiga almashtirishni maqsad qilib qo'ydi. Nihoyat, uchinchilari esa jamiyatni o'zgartirmasdan turib ta'lim tizimini islox qilish mumkin emasligini, vaqtni boy bermasdan yoshlar bilan olib

boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning yangi tizimini yaratishga kirishish kerakligini e'tirof etadilar.

Bugun O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan islox qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ruyobga chiqarish shartlaridan biridir. Shu sabab biz bu pedagogik fenomenning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini o'rganishga tarixiy yondashmoqdamiz.

Pedagogik texnologiyaning ikkinchi yo'nalishi - nazariy-didaktik jihatlari 80-yillarning boshida AQSh va Angliyada tadqiqot ob'ektiga aylandi. Chunki "texnologiya" so'zi keng ma'noda nazariy bilimlarni amaliyot maqsadiga ko'chirish, bu ko'chirishning aniq yo'llarini ishlab chiqish zarurati e'tirof etildi.

XXI asrga qadam qo'yish arafasida G.K.Selevko tomonidan pedagogik texnologiyaga oid yirik metodologik asar - o'quv qo'llanma yaratildi va unda pedagogik texnologiyalar tasnifi keltiriladi (24). Olim pedagogik texnologiyalarni o'n ikki turga ajratadi:

1. Qo'llanish darajasi bo'yicha (umumpedagogik; xususiy predmetli; lokalli, modulli, tor pedagogik).
2. Falsafiy asos bo'yicha (materializm, idealizm, dialektik, metafizik, insonparvar, noinsonparvar, antroposofiya, teosofiya, pragmatizm, ekzistensializm, ssionizm).
3. Ruhiy rivojlantirishning yetakchi omillari bo'yicha (biogenli, sotsiogenli, psixogenli, idealistik).
4. O'zlashtirish konsepsiyasi bo'yicha (assosativ-reflektorli, rivojlantiruvchi, bexavioristik, geshtaltexnologiya, suggestiv, neyrolingvistik).
5. Shaxs to'zulmasiga yo'naltirilganlik bo'yicha (informatsion, operatsion, hayajonli - badiiy, hayajonli - axloqiy, o'z-o'zini rivojlantiruvchi, evrestik va amaliy).

6. Mazmuni va tuzulish xarakteri bo'yicha (ta'limiy va tarbiyaviy, dunyoviy va diniy, umumta'lim va kasbga yo'naltirilgan, gumanitar va texnokratik, turlicha soxaviy texnologiyalar, xususiy predmetli hamda monotexnologiyalar, politexnologiyalar).

7. Tashkiliy shakllar bo'yicha (sinf - dars, muqobilli, akademik, yakka tartibli, guruhli, jamoa bo'lib o'qish usullari, tabaqalashtirilgan ta'lim).

8. Bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turi bo'yicha (ma'ruzali klassik o'qitish; audiovizualli texnik vositalar yordamida o'qish; "maslaxatchi tizim"; kitob yordamida o'qitish; "kichik guruh" tizimi ; kompyuterli o'qitish; "repetitor" tizimi; "dasturli ta'lim" - V.P.Bespalko).

9. Bolaga yondashish bo'yicha (avtoritar, didaktosentrik, shaxsga yo'nalgan texnologiyalar, hamkorlik texnologiyasi, erkin tarbiyalash texnologiyasi, ezoterik texnologiyalar).

10. Ustuvor metodlar bo'yicha (reproduktiv, tushuntirish - ko'rsatish, rivojlantiruvchi ta'lim, muammoli ta'lim, ijodiy; dasturli ta'lim, dialogli, uyinli ta'lim, o'z-o'zini o'qitish ta'limi, informatsion ta'lim).

11. Mavjud an'anaviy tizimlarni yangilash yo'nalishlari bo'yicha (munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida; bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosida; tashkillashtirish va boshqarish samaradorligi asosida; o'quv materiallarni metodik va didaktik rekonstruksiyalash asosida; tabiatan monandlik, mukobillik texnologiyalari; mualliflik maktabining yagona texnologiyasi).

12. Taxsil oluvchilar toifasi bo'yicha (ommaviy texnologiya, olg'a odimlovchi ta'lim, to'ldiruvchi; o'zlashtirmovchilar bilan ishlash texnologiyalari, iqtidorlilar bilan ishlash texnologiyalari).

Ta'lim-tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham talaba- o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday

texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'qituvchi o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh характери, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchilarga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchi-talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchini ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

1.2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'rgatish

Ma'lumki, «Adabiyot » darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analarga iftixor hissini kamol toptirishda «Adabiyot» darslarining o'rne beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib boramiz.

Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqamiz. Ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilamiz. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Modul dars», «Zigzak», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars» kabi usullardan foydalanamiz. Darslarda o'zimiz o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, ilojini boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

Noan'anaviy darsning asosiy yo'nalishlari:

- a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;
- b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
- v) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;

g) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo.

Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi:

- o'qituvchilarga kerakli metodik yordam ko'rsatish;
- turkum fanlar bo'yicha uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferentsiya hamda seminarlar tashkil etish.
- darslarni kuzatish va ularda pedagogik texnologiya elementlarini qo'llash darajasini oshirish;
- ilg'or ijodkor o'qituvchilar tajribasini o'rganish va ommalashtirish;

Dars jarayonida umumiy yoki mavhum tushunchalar o'rniga aniq ilmiy asoslangan ma'lumotlar berish va boshqalar. Bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yo'qalaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo'lishi, ulardan o'z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo'lmoqda. Maktabda adabiy kechalar o'tkazish ham o'ziga xos samara beruvchi usullardandir. O'quvchilar bunday tadbirlarda she'rlardan namunalar yodlaydilar, timsollarga bo'linib, asarlardan parchalar ko'rsatadilar, sahnada o'zlari ijro etadilar. Bunda o'quvchi yodlagan har bir jihat uning ongida bir umr muhrlanib qoladi, uning yodidan chiqmaydi.

O'quvchi uchun mustaqil o'rganishga berilgan badiiy asarni taqriz yozish orqali tahlil qilib berish usuli ham ancha samarali natija beradi. Taqriz yozish jarayonida o'quvchilarda badiiy asar tiliga e'tibor kuchayadi, ularni badiiy ijodga o'rgatish imkonlari tug'iladi. Chunki taqriz yozish jarayonida o'quvchi har bir so'zning ma'nosi, salmog'i va ta'sir kuchini to'liq anglab etishga harakat qiladi.

O'qituvchilardan ham dars samaradorligi oshiradigan, o'quvchilar faolligini kuchaytiradigan texnologiyalarni qo'llash talab etilmoqda. Bunday o'quvchilarga asosan o'quvchilarda o'zaro rakobatni o'rnatish uchun adabiyot darslarida o'yin mashg'ulotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chunki o'yin texnologiyasi o'quvchilar orasida faollikni yanada kuchaytiradi va mavzuga oid bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Adabiy ta'limda asosiy faollik

o`qituvchining o`zida mujassam bo`lishi kerak. Shundagina o`quvchilar orasidagi faollikni ta`minlay oladi.

Zamonaviy ta`limni tashkil etishda turli xil o`yinlardan samarali foydalanishga alohida e`tibor berilmoqda. Bugungi kunda adabiy ta`lim jarayonida qo`llash nihoyatda qulay bo`lgan bir qator o`yinli texnologiyalar yaratilmoqda. O`yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy malaka va ko`nikmalariga aylanishini ta`minlabgina qolmay, balki ta`lim oluvchilarda muayyan axloqiy irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga o`z ulushini qo`shadi.

D.B.El`koninning fikriga ko`ra, “Xuddi shu oddiygina o`yin orqali o`sib kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba qaror topa boshlaydi”¹. Bir qancha izlanishlar shu fikrga olib keladiki, o`yin - bu taraqqiyotning rolidir, uning kelajakka, rivojlanishga qaratilgan, undan kelib chiqadigan qonun-qoidalar, iroda hamda matonat maktabidir.

Yuqori sinflarda, ayniqsa, xilma xil asar qahramonlariga xos portret qiyofalarini o`quvchi ko`z o`ngida jonlantirish vositasida u qaysi asar qahramoni ekanini topish o`yinini olib borish mumkin.

Masalan, 8-sinfda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” dostonida quyidagicha o`yin turidan foydalanish mumkin:

1. U benuqson aql timsoli, vazirning o`g`li bo`lib. Davlat ishlarida emas, dunyo ishlarida aql, idrok bilan ish ko`radi. (O`g`durmish)
2. U taqvodor, zohid, davlatning qarindoshi qanoat timsoli bo`lib. Foniyl dunyoni o`tkinchi deb biladi. U dunyoviy ishlarning barchasi kerak, u hayotiy zarurat, lekin bu dunyo tuzilishi yo`lida umrini qurbon berish donolik belgisi emas deb biladi. (O`zg`urmish)

O`qituvchi yuqoridagi fikrni bayon etib, kim ta`riflanganini so`raydi. O`quvchilar esa o`qigan asari yuzasidan kimligini eslab topib aytadi.

¹ El`konin D.B. Psixologiya igru. Moskva.Pedagogika. 1978.

O`yin darslari vositasida o`quvchilarni mustakil fikrlashga, ijodkorlikka yo`naltiriladi. O`quvchi o`zlashtirgan bilim va malakalariga tayanib o`yin darsi vositasida mustaqil harakat qiladi, o`quv topshiriqlarini bajaradi. Qo`yilgan muammolarni echadi. Bahs darslari o`quvchini ma`lum bir muammo ustida bosh qotirishga shu muammoga o`z munosabatini bildirgan holda yondashib, uni hal etishga yo`lovchi dars turidir.

Bahs darslarini aloxida daqiqali dars davomida o`tkazilsa baxs dars deb, darsni ma`lum bir bosqichida uyushtirilgan baxs esa darsning baxsli bosqichi deb yuritiladi.

Baxs dars o`tkazish uchun o`quvchi-talabalar oldindan tayyorgarlik ko`rishi maqsadga muvofiq.

Ularga muammoli savollar berilishi va shu muammoni xar bir o`quvchi o`zicha xal qilgan xolda darsga tayyorlanib kelishi kerak.

Baxs darslarni xar bir o`rganilgan asar yuzasidan pala-partish o`tib bo`lmaydi. Buning uchun o`qituvchi asarni sinchiklab, o`rganib, baxs munozaraga sabab bo`ladigan o`rinlarni belgilashi, shu o`rinlar asosida o`quvchilarda munozara qo`zg`ay oladigan savollar tayyorlashi, keyin ularni o`quvchi-talabalarga xavola qilishi zarur.

O`quvchilarning darsdagi mas`ulligini oshirish va ularda o`rganilayotgan asarga qiziqishni kuchaytirishda asosan evristiik usulda foydalaniladi.

Biror asarni to`liq o`rganib, bo`lingandan keyin baxs dars o`tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o`quvchi asar bilan yaxshi va to`liq tanishmagan bo`lsa, berilgan muammoni to`g`ri tushuna olmaydi va savollarga javob berishga ojizlik qiladilar. O`z fikriga ishonmagan o`quvchi baxsga ham aralashib, faollik ko`rsata olmaydi.

Baxs darslar o`quvchilarni fikrlashga, so`zlashga, tadqiqot qilishga, maqbulni nomaqbuldan ajrata bilishga, o`z fikrini dalillar bilan isbotlashga, muxokama va munozara yuritishga o`rgatadi. O`quvchilar xaqiqatni yuzaga chiqarishga intiladi, chunki haqiqat baxsda tug`iladi.

O'qituvchi darslikdan tashqari matndan foydalanib, tayyorlanib kelsa ham uni o'quvchilarga sodda tarzda yetkazib berishga harakat qilish kerak. 8-sinfda "Kuntug'mish" dostoni matni ustida ishlash va nazariy ma'lumot berish uchun 4 soat ajratilgan. Shu to'rt soat davomida o'qituvchi dostoni o'qib, ularni sharhlab, izohlab o'quvchilar ongiga to'liq to'g'ri yetkaza bilishi shart.

Dars mavzusini bayon qilgandan keyin o'qituvchi darsning: ta'limiy, (Dostoning umumiy mazmuni yuzasidan malaka hosil qilish, o'quvchilarda matn bo'yicha fikrlay olish, munosabat bildirish ko'nikmalarini tarkib toptirish) rivojlantiruvchi (o'zining va o'zgarar tuygularini his qilish va hamkorlikda ishlash malakalarini rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqini shakllantirish) va tarbiyaviy (o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash). maqsadlarini o'quvchilarga tushuntirib o'tadi. Dars uslubi: "Baxs-munozara", "Intellect", "Suqrot", "Zinamazina" metodlari. Dars jihozi: adabiyot darsligi, "Kuntug'mish" dostoni, marker, qog'ozlar, multimedia apparati. Dars turi: noan'anaviy.

Darsning borishi. Tashkiliy qism amalga oshiriladi. Darsning rejasi haqida o'quvchilarga tushuncha beriladi.

"Intellect" metodi asosida darsning birinchi qismi boshlanadi. (Yozuv taxtasida beshta raqam ostida tezkor savollar berilgan. Guruhlar tanlaydi, jamoa javob beradi.) Savollar quyidagicha.

1. Dostonni o'qish davomida sizda qanday o'y-fikrlar paydo bo'ldi?
2. Xolbekaning o'ziga xos fazilatlari nimada?
3. Xolbeka timsoliga sizning munosabatingiz qanday?
4. Kuntug'mish sizning tasavvuringizda qanday yigit?
5. Gurkiboy bilan Mohiboy qanday bolalar?
6. Dostondagi voqealar qaysi zamonda, qayerda bo'lib o'tgan?
7. Dostonning umrboqiyliги siri nimada?


Javoblar tinglanadi, izohlanadi, so'ng asar mazmuniga yanada chuqurroq kirish uchun "Suqrot" metodi tanlanadi.

O'qituvchi: - Asarning badiiy qimmatini oshiruvchi eng yaxshi vosita bu

detallardir. Dostonda qanday o'ziga xos detallar qo'llangan? Darslikdan qidirib toping va daftarlaringizga yozing.


(Topshiriq tayyor bo'lgach, o'quvchilar birin-ketin o'qiydilar).

O'quvchi: Maktub, soch tolasi, surat sandiq, qulf kalit.




Savol: - Soch tolasi asarning qaysi voqea bilan bog'liq joyida uchraydi? So'zlab bering? (Har bir o'quvchiga javoblarni o'qish jarayonida huddi shunday savollar bilan murojaat qilib boriladi va doston matni bo'yicha bilimlari mustahkamlanadi).

O'qituvchi: - Dostonda tilga olingan joy nomlari qaysilar? Daftaringizga yozing va fikringiz bilan javobni to'ldiring.



O'qituvchi: -Dostonni o'qiganingizda qaysi qahramonlarga havas qildingiz, qanday ma'naviy tarbiya oldingiz? Asar qahramonlarini ikki guruhga ajratgan holda yozing, qahramonlar talqini bo'yicha berilgan savollarga javob bering.



O'quvchilar jamoa bo'lgan holda vazifalarni bajaradilar. Topshiriqlarning har biriga javobni guruhlardan bittadan o'quvchi yozuv taxtasi oldida quyidagi ko'rgazmada marker bilan ifoda etib boradi.

"Zinama-zina"metodi.Ushbu metodni qo'llashdan maqsad dars ona tili fani bilan bog'lanadi. Bunda og'zaki va yozma nutq shakllanadi,grammatik qoidalar esga solinadi. Xolbekaga tavsif berish jarayoni darsning shu qismida amalga oshiriladi. Albatta, har bir tavsifni yozgandan so'ng "Nima uchun"? degan savol ostida bahs-munozaraga kirishiladi.

Har bir topshiriq bajarilgach"Nima uchun"?, "Nega'?", "Qayerda"? kabi savollar bilan doston matni bo'yicha bilimlar mustahkamlanib boriladi.O'quvchilar bali eshittiriladi, izohlanadi.

"Muammoli vaziyat" metodi. Uyga vazifa yozma tariqasida berilsa, o'qituvchi tomonidan belgilangan savol va topshiriqlarga og'zaki javob berishga tayyorlanib kelish topshiriladi.

Uyga topshiriqda o'quvchilar dostondan asar qahramonlariga xos bo'lgan

vaziyatni belgilaydilar, sababini ko'rsatadilar va vaziyatdan chiqib ketish harakatlarini yozib chiqadilar. (Kuntug'mish, Xolbeka, Mohiboy, Gurkiboy).

Dars yakunida mavzu yuzasidan uyga vazifa beriladi.

Dars jarayonida guruhlar ishtiroki rag'bat va jarima kartochkalari bilan, har bir o'quvchi ishtiroki ball kartochkalari bilan baholab boriladi va natijadan kelib chiqib, g'olib guruh aniqlanadi.

Albatta dars oxirida guruhlar to'plagan umumiy baholar izohlab beriladi. Faol ishtirok etganlar baholanadi va rag'batlantiriladi. Bu kabi yana "Tanqidiy tafakkur", "Debatlar", Har kimga har kim o'rgatadi", "Kubiklar", "Insert usullaridan unumli foydalanish dars sifatining yuqori bo'lishi bilan birga o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida, har qanday sharoitda ham o'z nuqtai nazariga ega bo'lgan, erkin fikrlovchi inson bo'lishiga katta yordam beradi.

Bugungi kunimiz nihoyatda shiddatkor. U har bir o'qituvchidan o'z ishiga ijodiy yondashishni, ta'limning yangi shakllaridan foydalangan holda dars samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, adabiyot darslarida o'quvchi o'zligini anglasa, o'zini va o'zgalarni tushuna olsa, o'qituvchi o'zining kamchiliklarini ko'ra olsa va ularni to'g'rilashda g'ayratli bo'lsagina, dars kashfiyot darajasiga etadi.

I I – B O B

DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI

2.1. O'qitishning samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning ilmiy nazariy asoslari

Interfaol usul nima? An'anaviy ta'limda "nimani, qachon va qayerda" muammolariga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, zamonaviy hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalarida "qanday qilib o'rgatish kerak?" degan muammo muhim o'rinni egallaydi.

Ta'lim jarayonida o'rgatuvchi va o'rganuvchilar hissasining nisbati insoniyat taraqqiyotining (sivilizatsiyaning) turli davrlarida turlicha bo'lgan. Bir vaqtlar ta'lim beruvchilar yetakchi bo'lgan bo'lsa, ma'lum davrlarda ta'lim oluvchilar tashabbuskor bo'lishgan va bunday faolliklarning ijobiy va salbiy jihatlari tadqiq etilgan. Keyingi o'n yilliklarda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan ta'lim texnologiyalari jadallik bilan rivojlanmoqda va ommalashmoqda. Pedagoglar bunday ta'lim texnologiyalarini "hamkorlik pedagogikasi" deb atashmoqda. Bunday hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalari AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilib, yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Bunday ta'lim texnologiyalaridan biri interfaol o'qitish metodlariga asoslangan. "Inter" so'zi lotincha bo'lib, o'zbekcha "oraliq", "o'rtasi", "o'zaro" kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro faollikka asoslangan hamkorlik ekan. Tabiiyki interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim tizimidagi o'zaro faol usullar (metodlar)dan tarkib topadi.

Hamkorlikka asoslangan, o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan, o'quvchilarni boshqalarning fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgaralar manfaatlari bilan hisoblashish, ulardan o'rganish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning "men"ligini sezish, his qilish, o'zini boshqarish, fikrini lo'nda va aniq bayon qila olishga o'rgatishga qaratilgan

"interfaol" o'qitish usullari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ijobiy samara bermoqda. Interfaol usullar guruxdagi kichik guruxlar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib, o'quvchilarni harakatchanlikka boshlab, ruxlantiradi, natijada o'quvchilar hamkorlikka o'rgana boshlaydilar. Har qanday interfaol usul to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llanilganida o'rganuvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Interfaol usullarda muammoli, hayotiy vaziyatlardan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Baxsli, muammoli vaziyat-insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog'liq bo'lib qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Baxsli, muammoli vaziyatlar o'quvchilarning aqliy kuchini o'zg'artiradi, vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidira boshlaydi. Qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Odam muammo bilan yuzma-yuz (to'qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O'zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlab, saviyasiga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi.

O'quvchilar o'zlari bajargan, topshiriqlarni qanday qilib bajarganligini aytib, tushuntirib bera olishlari lozim. Qanday o'ylagani, fikrlagani haqida gapirib bera olishlari kerak. Muammoni hal qilish jarayonidagi tushunmay qolgan o'rinlarini o'z sozlari bilan ifodalab bera olishi, orgatuvchi uchun juda muhimdir.

Bugungi kunga kelib butun dunyo miqiyosida ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish jarayoni kechmoqda. Hozirgi ta'lim tizimi uchun o'qituvchining o'rgatgani bilangina cheklanib qoladigan o'quvchilarni tayyorlash maqsad bo'lolmay qoldi. Asosan xotirani rivojlantirishga yo'naltirilgan bunday ta'lim yo'sini davr talabiga javob beraolmaydi. Chunki har qanday kuchli xotira ham cheksiz dunyodagi beaded hodisalarning barchasini qamrab ololmaydi. Buning ustiga xotira yordamida o'zlashtirilgan bilimlar faqat standart vaziyatlardagina foydalanishga mo'ljallangan bo'ladi. Notanish vaziyatga duch kelishi bilanoq bu bilimlar yaroqsiz bo'lib qoladi, hayot esa hech qanday andazalarga tushmaydigan darajada rang-barangdir. Shuning uchun ham yosh avlodni mustaqil izlanadigan, nostandart vaziyatlarda eng maqbul va mustaqil qarorlar qabul eta oladigan qilib tarbiyalash kun tartibiga chiqdi.

Amerika olimlarining bilimlarini o'zlashtirish jarayoni yuzasidan o'tkazgan keyingi tadqiqotlar shuni ko'satadiki, bugungi kunda o'qituvchi o'quvchiga dunyoni anglatishga ko'ra oila, axborot vositalari va ijtimoiy muhitdan keyingi to'rtinchi o'ringa tushib qolgan. Olamdagi har bir ilmning bo'yiga chuqurlashib, eniga kengayishi shu darajaga etdiki, bir kishi fanning kichik bir sohasini ham to'liq o'zlashtira olmaydigan bo'lib qoldi.

Jamiyat a'zolari ma'rifatparvarlik darajasining o'sishi oilaning ichki imkoniyatlarini orttirib yubordi. Deyarli har bir o'tboshi o'z bolalariga mustaqil ravishda ta'lim maskani darajasida bilim beraoladigan imkoniyatga erishadi. Axborot oqimi miqyosning behad kengayishi axborot vositalarining ko'payishiga olib keldi. Taraqqiyot esa, bu tiyiqsiz axborotlar oqimidan o'ziga keraklilarini o'zlashtirib olishning g'oyat qulay texnik vositalarini yaratadi. Odamlarning umumiy intellektual saviyasi jahon miqyosida sezilarli darajada yuksaldi.

Ta'lim tizimi va uni yo'lga qo'yish sohasidagi shu yangilanishlar keyingi vaqtlarda jahon miqyosida keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarning yuzaga kelishini taqazo etadi. Interfaol usullar mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan o'quvchilarni shakllantirish imkoniga egaligi bilan etiborga loyiqdir.

Interfaol metodlardan foydalanish o'quv mashg'ulotlarini qiziqarli qiladi, ularning negizida konstruktivizm falsafasi yotadi. Konstruktivizm keyingi 40 yil davomida dunya pedagogika ilmida ham nazariy qarash, ham amaliy yo'nalish sifatida keng yoyildi. Konstruktivizm haqiqatga erishish usulini haqiqatning o'zidan ko'ra qimmatliroq deb biladigan pedagogik falsafadir.

Shuning uchun ham interfaol metodlarda erishiladigan didaktik natijadan ko'ra unga kelish yo'li, o'quvchilarning bu sohadagi izlanishlari, tashabbus ko'rsatishlari muhim sanaladi. "Ilmiy bilim turg'un hodisa bo'lmay tinimsiz qurish va qayta tiklashdan iborat kechimdir", -deydi Jan Piaje. Chindan ham, hech bir ta'lim biiror nuqtaga etgach, to'xtab qolmaydi, balki uzluksiz ravishda yangi marralar sari intilishlar tizimidan iborat bo'ladi.

“Interfaol metodlarni qo’llash natijasida o’quvchilarning vazifa va maqomi bir qadar ozgaradi. Interfaol metodlardan foydalanayotgan muallim shunchaki dars beruvchi emas, balki o’quvchining tadqiqotchilik faoliyatidagi maslahatchi, tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchidir. U o’quvchilarga mustaqil aqliy faoliyat ko’rsatishga sharoit yaratadi va uning tashabbuskorligini har tomonlama qo’llaydi”.¹

Interfaol metodlar orasidagi eng ko’p qo’llaniladigani va samarali usullardan biri bu fikriy hujum usulidir. Bu usul biror sinf yoki o’quvchilar jamoasi oldiga qo’yilgan muammoni echishning eng qiziqarli va demokratik yo’lidir. Shuni alohida takidlash o’rinliki, hozir fikriy hujum usulidan foydalanish o’qituvchilar tajribasida keng tarqalgan.

Holbuki, fikriy hujumning butun mohiyati, o’quvchilarning o’zlari yangi mavzuni o’zlashtirishi yoki qo’yilgan biror didaktik muammoni hal etish uchun fikrlarni zo’riqtirib, tinimsiz ‘hujum’ qilish va shunday qiziq va qizg’in faoliyat natijasida o’quv topshirig’ini bajarishlaridir. Bu usulning diqqat loyiq tomoni shundaki, unda kichik guruhlardagi o’quvchilar o’zaro birgalikda ishlashga yaxshi yoki yomon o’qishidan qat’i nazar har bir bolaning fikrini eshitishga o’rganishadi. Guruh a’zolariga bir xil baho qo’yilishi esa bolalarda jamoatchilik ruhini shakllantiradi.

Interfaol metodlardan foydalanish ta’limni o’quv predmetlari asosida emas balki obektiv dunyoning o’zidagi kabi sinkretik tarzda tashkil etishni ko’zda tutadi. Bunda o’quvchi va o’qituvchi o’quv fani tushunchasidan yuqori turishi talab etiladi. Shu bois o’qituvchi, bolalar oldiga ularni o’rab turgan real borliqdagi haqiqiy muammolarni o’quvchilarning o’zlari tavsiya etsalar, yanada yaxshi bo’ladi. O’quvchilarning oldiga qo’yiladigan muammo o’ylab topilgan sun’iy yoki izlanishiga arzimaydigan darajada kichik, bo’lmasligi kerak.²

¹ D.Safin, R.Mustina. Interaktivn’e metod’prepodavaniya I ucheniya. Dushanbe, 2006 g 317-bet.

² G.K.Selevko. Entsiklopediya obrazovatel’n’x texnologiy v 2 t. Tom 1 m. 2006 g. 808-bet.

Mashg'ulotlar so'ngida fikriy hujum jarayoni qanday o'tgani va qaysi guruhga nima sababdan qanday baho qo'yilganligi hususida o'qituvchi bir necha og'iz so'z aytadi. Alohida ta'kidlash kerakki, baho alohida bolalarga emas, balki kichik guruhlardaigi barcha o'quvchilarga qo'yiladi. Shunday qilinsa, guruh a'zolari birbirlarini o'qitishadi, didaktik materialning barcha qatnashchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishiga erishiladi.

Guruh sharoitida ishlashda, shoir hayoti va ijodini o'rgatishda turli interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Shunday usullardan ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Aqliy hujum (Breynshtorming)

Aqliy hujum - g'oyalarni generatsiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarni ilgari suradilar (generatsiya kiladi). U ishtirokchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga rag'batlantiradi. «Aqliy hujum»ning vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi- yangi g'oyalarni yaratishdir. Bu usul muammoni hal qilayotgan kishilarning ko'proq aql bovar qilmaydigan va hatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. G'oyalar qancha ko'p bo'lsa, ularning hech bo'lmaganda bittasi ayni muddao bo'lishi mumkin.

«Aqliy hujum»ning qoidalari:

Fikr va g'oyalar hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim;

Bildirilgan fikr va g'oyalar takliflar berish to'xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi;

Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi;

Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi;

Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin;

Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi;

Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

Bu usul barcha funksiyalarni bajaradi: lekin uning asosiy vazifasi-muammoni mustaqil tushunish va echishga ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini uyg'otishdan iboratdir.

Aqliy hujum usulining texnologik xaritasi.

Ish bosqich-lari va mazmuni	Faoliyat	
	O'qituvchi	O'quvchi
Bosqich Tayyorlov	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni natijalarni, baholash mezonini shakllantiradi	
2-bosqich Kirish	Mavzuning maqsad, natija va baholash mezonini e'lon kiladi. Aqliy hujum usuli maqsadni amalga oshirish usuli ekanligini tushuntiradi. Berilgan muammoni bayon qilib, boshlash to'g'risida buyruq beradi.	
3- bosqich G'oyalarni kiritish	G'oyalarni magnitafon yoki videolentaga, qogoz varag'iga yoki doskaga yozib olishni taklif qiladi.	Muammoni yechish buyicha g'oya va takliflar haqida mulohaza yuritadilar.
4- bosqich Tahlil	Taklif qilingan baholash mezonlaridan kelib chiqqan holda ilgari surilgan g'oyalarni tahlil qilishni tashkil etadi.	Bildirilgan g'oyalarni, takliflarni guruh bo'lib tahlil kiladilar. Eng qulay va maqsadga muvofiqlarini aniqlaydilar.
5- bosqich Yakun yasash, tahlil va baholash	O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	O'z-o'ziga baho berishlari mumkin

Klaster usuli

Klasterlarga ajratish - o'quvchilarga biror-bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea) lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so'zi hujum, bog'lam ma'nosini anglatadi.¹ Klasterlarga ajratishni da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga etib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Biror mavzu bo'yicha klasterlar tuzishdan bu mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Klaster tuzish ketma-ketligi:

Katta varoq qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi;

Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi;

Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash;

Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;

Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Klaster tuzishda guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtirok etishi, shu guruh uchun g'oyalar o'zagi bo'lib xizmat qiladi.

¹ Xalqaro ochiq jamiyat institutining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlararo dasturi. T., 12 b.

“Venn diagrammasi texnologiyasi”. Bu metoddan o’rganilgan, bir-biriga bog’liq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi. Undan foydalanish bosqichlari:

- talaba - o’quvchilar ikki guruhga bolinadi;
- plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo’yiladi;
- har bir to’g’ri fikrga qo’yiladigan ball oldindan kelishib olinadi;

“Venn diagrammasi texnologiyasi”. Bu metoddan o’rganilgan, bir-biriga bog’liq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi. Undan foydalanish bosqichlari:

- talaba - o’quvchilar ikki guruhga bolinadi;
- plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo’yiladi;
- har bir to’g’ri fikrga qo’yiladigan ball oldindan kelishib olinadi;
- qo’yilgan topshiriq bo’yicha guruhlarining har qanday to’g’ri yoki noto’g’ri fikrlari bir talaba - o’quvchi tomonidan ikki xil rangdagi flamasterda diagrammaning tegishli joylariga yozib boriladi;
- kichik guruh ichidan biror talaba- o’quvchi sheriklarining ismi-shariflari to’g’risiga ular aytgan fikrlarni qayd qilib boradi;
- fikr bildirishlar nihoyasiga yetgach o’qituvchi va talaba- o’quvchilar hamkorligida to’g’ri va noto’g’ri javoblar aniqlanadi;
- to’g’ri javobga uch ball qo’yiladigan bo’lsa, har bir noto’g’ri fikr uchun guruhning umumiy balidan uch ball olib tashlanadi;
- eng ko’p ball to’plagan guruh g’olib hisoblanib ular rag’batlantiriladi;
- bu jarayonda kichik guruhda qayd etilgan javoblarning noto’g’rilari o’chirib chiqiladi va natijalar e’tiborga olingan holda talaba-o’quvchilarga tabaqalashtirilgan ball yoki baho qo’yiladi.

Sinkveyn usuli

J.Still, K.Meredit, Ch.Templning «O’qish va yozish tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun» dasturida o’quvchi va talabalar faolligini oshiruvchi, ularning tanqidiy fikrlashini o’stiruvchi qator usullar ko’rsatib o’tilgan. Shulardan ayrimlariga qisqacha to’xtalib o’tamiz.

Sinkveyn - fransuz tilida «5 qator» ma`nosini bildiradi. Sinkveyn-ma`lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she`r bo`lib, unda o`rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqea, mavzu) to`g`risidagi axborot yig`ilgan holda, o`quvchi so`zi bilan turli variantlarda va turldi nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish- murakkab g`oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so`zlar bilan ifodalash uchun muhim bo`lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.¹

Sinkveyn tuzish qoidalari:

- 1 - qator: Mavzu bir so`z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).
- 2 - qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).
- 3 - qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so`z bilan ifodalanadi. (3 ta fe`l yoki ravishdosh yoziladi).
- 4 - qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to`rtta so`zdan iborat bo`lgan fikr yoziladi. (4 ta so`zdan iborat jumla yoziladi).
- 5 - qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma`nosi unga yaqin bo`lgan bitta so`z yoziladi (mavzuga sinonim so`z yoziladi).

Sinkveynlar quyidagi hollarda juda foydali bo`ladi:

Murakkab axborotni sintezlash uchun vosita sifatida;

O`quvchilar tushunchalarining yig`indisini baholash vositasi sifatida;

Ijodni taqdim etilishining vositasi sifatida.

Sinkveynga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Ta`lim

Uzluksiz, ixtiyoriy (majburiy).

O`rgatadi, yo`l ko`rsatadi, ruhlantiradi.

¹ Xalqaro ochiq jamiyat institutining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlararo dasturi. T., 13 b.

Hayotdagi eng yorug chirog'!

Bilim.

Odob

Go'zal, yaxshi

Insonni bezaydi, ulug'likka ko'taradi, yashnatadi.

Inson odobi bilan go'zal.

Axloq

2.2 G'afur G'ulomning hayoti va ijodini o'rgatishning samarali usullari

Darsning borishi.

Maqsad: O'quvchilarni buyuk mutafakkir Gafur Gulom hayoti va ijodi haqidagi bilim, malakalarini yanada kengaytirish.

- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z fikrini dalillar bo'yicha asoslashga o'rgatish.

- o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hamkorlikda ishlay olish qobiliyatini shakllantirish, bir - biriga o'zaro hurmatini oshirish.

Dars uslubi: interfaol usullardan foydalangan holda musobaqa darsi.

Dars jihozi: texnik vositalar, m'agnitafon, 8-sinf" adabiyot darsligi, ko'rgazmalar va savol varaqasi. Sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi, har bir guruhga nomi beriladi.

- "Navoiy" guruhi
- "Bobur" guruhi
- "Mashrab" guruhi

O'qituvchi: Qani o'quvchilar fikrimizni jamlash, tilimizni charxlash uchun "aqliy hujum" musobaqasini boshlaymiz.

1. Qaysi ijodkor turkiy til bilan Xitoydan Xurosongacha o'lkalarni jangu-jadalsiz zabt etganligini ta'riflaydi?

Javob: Alisher Navoiy.

2. Turkiy "Xamsa" qachon va kim tomonidan yaratilgan?

Javob: 15-asrning 2-yarmida A. Navoiy tomonidan yaratilgan.

3. Laff va nashr nima? Javob: Yig'ish va yoyish

4. Mashrab so'zining ma'nosi nima? Javob: - Ilohiy sharobga erishmoq.

5. "Kishan", "Qalandar ishqi" g'azallari qanday vaznda yozilgan? Javob: - Aruz vaznida

(3 ta guruhga 15ta savol beriladi va guruh g'oliblari aniqlanadi.

Guruhlarning uchalasi ham g'olib bo'lganligi uchun ularga 10 balldan beriladi, dars davomida eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib deb topiladi.

Guruhlarning uchalasi ham g'olib bo'lganligi uchun ularga 10 balldan beriladi, dars davomida eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib deb topiladi.

Yangi mavzuning bayonu

Yangi mavzu bo'yicha kirish suhbatini o'tkaziladi 3-guruhga 3 tadan savol beriladi.

- birinchi "Alisher Navoiy" guruhi a'zolari sevimli adibimiz haqida to'plagan ma'lumotlarini bayon etadilar.

XX asr o'zbek adabiyoti tarixini bezab turgan qutlug' nomlar orasida G'afur G'ulom nomi alohida hurmat va e'tiborga sazovor. U to'qqiz yoshga etganda otasi vafot etadi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay onasidan ham ayriladi. G'afur G'ulomda adabiyotga bo'lgan ishtiyoq va muhabbat erta uyg'onadi. Ular oilasini kichik adabiy muhit desa bo'lardi. G'afur G'ulomning shoirlik iste'dodini kamol topishida Sharq she'riy maktabi Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy, Hofiz, Shayx Sa'diy, Rudakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bedil kabilarning ijodlari katta ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinchi « Zaxriddin Bobur » guruhi a'zolari davom ettiradilar. G'afur G'ulom Sa'diyning « Guliston » asarini, Rudakiy, Firdavsiy, Bedil she'rlarini, Navoiyning Foni taxallusi bilan yozgan forsiy g'azallaridan o'zbekchaga tarjima qildi. G'afur Gulom adabiyot dargohiga shoir sifatida kirib kelgan bo'lsada, dastlab iste'dodli hikoyanavis, fel'etonchi, ocherknavis va publitsist sifatida taniladi. Ayniqsa, uning hajviy hikoyalari el orasida shuhrat topdi. U o'zbek realistik hikoyachiligiga asos solganlardan biri bo'ldi va umrining oxirigacha bu sohada muvaffaqiyatli qalam tebratdi. Uning nasrdagi mahorati, xususan, «Netay », »Tirilgan murda», «Shum bola », «Yodgor» qissalarida ochiq ko'rinadi.

« Shum bola » qissasi ustida avtor ko'p ishlagan. Keyinchalik asarni yangi boblar, yangi voqealar bilan boyitgan. Yozuvchi Said Ahmad : «Ming to'qqiz yuz oltmish ikkinchi yili G'afur aka yana «Shum bola» ni qo'lga oldi... Qissa boshdan

oyoq tahrir qilindi. Yangi boblar kiritildi. Hoji bobo obraziga juda ko'p detallar qo'shildi. Ayniqsa, qissaninig bosh qismi, oxiri, o'rtalarida o'zgarishlar bo'ldi. G'afur G'ulom «Shum bola» qissasini salkam yigirma besh yil ishladi, desam yanglish bo'lmaydi» -deb yozgan edi.¹

Uchinchi "Mashrab" guruhi a'zolari yangi mavzuni davom ettirib to'ldiradilar. - G'afur G'ulom o'zbek adabiyoti masalalarini yoritish bilan bir qatorda, rus ukrain, belorus, ozarbayjon, qozoq, tojik, turkman, tatar yozuvchilari ijodi haqida, adabiy aloqa ta'sir haqida yaxshi maqolalar e'lon qildi. G'afur G'ulomning ikki tomlik «Adabiy tanqidiy maqolalar» to'plamidan joy olgan M.B.Lomanosov, B.B.Mayakovskiy, A.S.Serafimovich, Taras Shevchenko, A.Jomiy, S.Ayniy, A.Lohutiy, M.Tursunzoda, Jambul Jabaev, Abay Qo'nanbaev, Fuzuliy, Sulaymon Rustam, Abdulla To'qay kabi turli millat yozuvchilari ijodi haqidagi maqolalari ana shundan dalolat beradi.

Shoir G'afur G'ulom mohir tarjimon sifatida A.Pushkin, M.Lermantov, A.Nekrasov, V.Mayakovskiy, M.Gorkiy, M.Tursunzoda kabi san'atkorlarning bir qancha asarlarini o'zbek tiliga tarjima qiladi. Shuningdek, buyk ingliz dramaturgi V.Shekspirning «Otello», «Qirol Lir» tragediyalari G'afur G'ulom tomonidan tarjima qilindi.

Uchala guruh ham to'g'ri ma'lumotlar to'plab, tushunarli va aniq fikr orqali yozuvchining hayoti va ijodi haqida to'liq ma'lumot berganligi uchun taqdirlanadi.

Endi guruhlariga navbatdagi topshiriq beriladi. Bu topshiriq orqali o'quvchilarning adib hayoti, ijodi haqidagi bilimlari sinovdan o'tkaziladi.

Yangi pedagogik texnologiya asosida "interfaol" usullardan bin "KLAster" dan foydalanamiz:

Uchala guruh ham toza qog'oz olib istagan xilda "klaster" chizmasini chizadilar.

O'qitish andozasining 1-bosqichini" boshlaymiz. "Klaster" o'quvchilarni mavzu haqida erkin, ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradi.

"Klaster" fikrlashning to'g'ri chiziqli bo'lmagan shaklidir.


¹ Said Ahmad. »Shum bola »ning davomi. « O'zbekiston madaniyati » ro'znomasi, 1978 yil 9-may.

"Klaster" bo'lish juda oson va tez eslab qolinadi.

Ta'lim-passiv emas, balki faol faoliyatdir. Bu bosqichda o'quvchilarning qiziqishi uyg'onadi, zarur savollar tug'iladi va bilimlarni egallash uchun sabablar shakllanadi


Klaster

I qator




Klaster

II qator



Klaster

III qator




Guruh o'quvchilari o'zlari tuzgan "Klaster" jadvali asosida mutafakkir ijodi haqida batafsil ma'lumot beradilar.

Guruh ma'lumotlari solishtiriladi va guruhlar rag'batlantiriladi. Guruh o'quvchilariga 4 topshiriq beriladi. Topshiriq yangi mavzuni hamda o'tilgan mavzularni ham mustahkamlashga katta ahamiyatga egadir. Bu topshiriq ham interfaol usullardan bid "BENN" diagrammasidan foydalanish bilan boshlanadi.

"BENN" diagrammasida ikkita yoki uchta shoir yozuvchining o'xshash va farqli tomonlari tahlil qilinadi.

Tanqidiy fikrlashning 2-bosqichi "BENN" diagrammasi mavzusidagi asosiy ma'noni anglashga yordam beradi. "BENN" diagrammasini tuzish uchun guruhdan ham, juftlikdan ham foydalanish mumkin, alohida-alohida berilsa ham bo'ladi.



Uchala guruhning ham diagrammalari sinf doskasiga ilib qo'yiladi.

Guruhlar baholanadi.

O'qituvchi 4-topshiriqni yakunlab, 5-topshiriqni topshiradi.

Endi, aziz o'quvchilar, bilim va malakalarni umumlashtirish uchun

"Sinkveyn" (oq she'r) yozish usulidan foydalanamiz. Bu 5 qatorlik she'rda G'afur G'ulom hayoti va ijodini qamrab oluvchi ma'lumotlar beriladi.

"Oq she'r" yozish uchun:

1. - Ot tanlanadi.
2. - Ikkita sifat tanlanadi
3. - Uchta fe'l tanlanadi
4. - His-hayajonli gap (to'rtta so'zdan iborat bo'lishi kerak)
5. - Birinchi so'zning sinonimi tanlanadi

"Navoiy", "Bobur", "Mashrab" guruhleri sevimli yozuvchimiz G'afur G'ulom haqida "Sinkveyn" tuzishga kirishadilar.

Guruhlar o'zlari yozgan she'rlarini ifodali o'qib, xulosalaydilar.

G'afur G'ulom

Iste'dodli, fikri jo'shqin.

O'qidi, yaratdi, nom qoldirdi. Poeziyada-prozaik, prozada shoir Oydanda go'zal (Guruhlar baholanadi)

O'qituvchi 5-shartni yakunlab, G'afur G'ulom – yirik shoir va nosir edi. Uning asarlarining tarbiyaviy-estetik ahamiyati nihoyatda katta. Binobarin, u adabiyotimizda o'ziga xos salmoqli o'rin egallaydi.

1.O'qituvchi: mavzuni o'qituvchi yakunlab, g'olib guruh aniqlandi.

Hullas, ta'lim samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda, bu esa har bir o'qituvchidan izlanish va ijodkorlikni talab etishi, shubhasiz.

X U L O S A

O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi.

Hozirgi kunda eng dolzarb masala va vazifa ta'lim standartlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir.

Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, ta'lim-ta'rbiy sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal etilmay qoladi. Adabiyot fanini maktabda o'qitishdan maqsad - o'quvchilarni ravon nutqli, ajdodlarimizning boy ijodiy merosini mukammal egallagan, sog'lom fikrli qilib tarbiyalash. Bu maqsadga erishish vositalaridan biri-amalda joriy etilayotgan pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishdir. Adabiyot fanida pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayoninig yuqori sifat va samaradorligiga erishadi.

“Adabiyot darslarda pedagogik texnologiyadan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari” deb nomlangan 1-bobida, o'quvchilarning savodxonligini oshirish, adabiyot mashg'ulotlarini yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, adabiyot darslarining samaradorligini hozirgi zamon talablari darajasiga olib chiqish va dars jarayoniga tatbiq etishning usul va vositalari haqida tavsiyalar berishga harakat qildik.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-bu o'qituvchi - trener va o'quvchilarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq. Ta'lim - tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday

texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'qituvchi o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchilarga bog'liq.

Bitiruv malakaviy ishining "Mumtoz adabiyoti namunalarini orgatish"ga oid qismida "Kuntug'mish" dostonida pedagogik texnologiyaning "Baxs-munozara", "Intellekt", "Suqrot", "Zinama-zina", "Kichik guruxlarda ishlash", "Aqliy hujum", "Tanqidiy tafakkur" oyin va savol javob metodlarining qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi va olib borilgan kuzatishlar pedagogik tajribalar misolida yoritiladi.

"Dars samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning qo'llanilishi" nomli ikkinchi bobda ta'lim tizimi va uni yo'lga qo'yish sohasidagi yangilanishlar keyingi vaqtlarda jahon miqiyosida keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarning yuzaga kelishi va ularni qo'llanishi haqida so'z yuritiladi. Interfaol usullar mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan o'quvchilarni shakllantirish imkoniga egaligi bilan etiborga loyiqdir.

Ma'lumki, kuzatishlar ta'lim jarayoniga innavatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni tatbiq etishga qiziqish tobora keng tus olganligini tasdiqlaydi. Boisi, bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi. Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi lozim. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek u qanday o'qitish usullaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega.

Umum ta'lim maktablarning adabiyot fanida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, borasida xulosa qilib shuni aytib o'tish o'rinliki, o'quvchilar savodxonligiga erishishda turli ta'lim usullaridan, birinchi navbatda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ijobiy samara beradi. O'zgalarni o'qitish bilim

olishning eng yaxshi usuli ekanligi hisobga olib, ta'lim jarayonida o'quvchilarni faollashtirishga erishish adabiyot fanini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot tizimi tez sur'atda rivojlangan davrda o'qituvchilar ommaviy-axborot vositalaridan ko'p narsa o'rganayotgan o'quvchilardan bir pag'ona oldinroqda yurishi, komp'yuter va boshqa texnik vositalardan, Internet materiallaridan foydalanishga harakat qilish zarur.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda, o'quvchlarni badiiy asarlarni, gazeta va jurnallarni mutolaa qilishga ko'proq jalb qilish o'qituvchining savodli o'quvchilar tayyorlashdagi zahmatli mehnatini engillashtiradi, o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, bilimlarini chuqurlashtirish, bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga ularning g'oyaviy, siyosiy, mehnat va estetik tarbiyalanishlari uchun bo'sh vaqtlarini band etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1998 yil.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1998 yil.
3. Karimov I.A. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» T., 1997 yil.
4. Arziqulov A.U. Interfaol usullar. -Samarqand, 2003.
5. Ilg'or pedagogik texnologiya nima va uni qanday qilib o'quv jarayonida qo'llash mumkin. -Ma'rifat nuri gazetasi, 20 sentyabr 2007 yil.
6. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - Toshkent, 2006.
7. Y Idoshev J.Q, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent,2005.
8. Karimjonov I.A. va boshq. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent, 2002.
9. Saydahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. - Toshkent, 1999.
10. G.K. Selevko. Entsiklopediya obrazovatel'nykh tekhnologiy v 2 t. Tom 1 m. 2006 g.
11. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo'llash. Toshkent, 2000.
12. Sadriddinzoda Sh.J., Eshmurodov M.Sh. Pedagogik texnologiyalar va ulardan foydalanish kursi bo'yicha ma'ruzalar to'plami. - Samarqand, 2007.
13. Yangi pedagogik texnologiyalar haqida. - Tuzuvchilar E. Turaqulov va boshq. - Samarqand, 2007.
14. Adabiyot o'qitish metodikasi (tuzuvchilar Q. Yo'ldoshev, O. Madayev, A. Abdurazzoqov). Toshkent. 1994 yil.
15. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik-majmua. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqarov. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2006 yil.
16. Azizxojayeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2004.
17. Yo'ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari,

yechimlari. // «Xalq ta`limi», 1999 yil, 4-son, 4-11 betlar.

18. Mahmudov M. O'quv materialini didaktik loyihalash tizimi. // «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3-son, 3-11 betlar.
19. Ochiilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma`ruzalar matni. Qarshi, «Nasaf», 2000 yil.
20. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., «Moliya», 2003 yil.